

ANTONOMAZIYA O'XSHATISH VA UNING O'RGANILAYOTGAN TILDAGI TURLARI.

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim fakulteti
540-21-guruh talabasi
Mo'ydinov Javohir
javohirmo'ydinov2003@gmail.com

Annotasiya: Maqolada antonomaziya hodisasining til va nutqda voqelanishi ochib berilgan, uning mohiyati va leksik-semantik xususiyatlari aniqlangan, inson lisoniy faoliyatida hamda badiiy matnni shakllantirishdagi o'rni va vazifalari belgilangan, nominativ vazifasidan tashqari ramziy ma'nolarni anglatishi, badiiy san'atni voqelantirishdagi roli, ayrim lingvopoetik xususiyatlari hamda o'zbek lingvomadaniyatida tutgan o'rni kabi masalalar o'rganilgan. Antonomaziyalarni semantik xususiyatlariga ko'ra uch guruh, ya'ni a) mashhur tarixiy voqealar asosida shakllangan antonomaziyalar; b) afsonalar asosida yuzaga kelgan antonomaziyalar; v) adabiy asarlar, ulardagi obrazlar asosida shakllangan antonomaziyalar bo'yicha o'rganish maqsadga muvofiqligi bo'yicha tavsiya berilgan. O'zbek adabiyotidagi antonomaziyalarning ayrim uslubiy va lingvopoetik xususiyatlariga Alisher Navoiy asarlari misolida aniqlik kiritilgan.

Kalit so'zlar: Kalit so'zlar: trop, antonomaziya, talmih, o'xshatish, metafora, onomastika, antroponim, mifologiya, lingvopoetika.

KIRISH

Ijtimoiy ong taraqqiyoti til hodisalariga yangicha nuqtai nazarlar bilan qarash, ularni yangi ilmiy kontseptsiyalar va zamonaviy metodlar bilan tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirdi. Shunga ko'ra keyingi davrlarda tilning inson hayotidagi mohiyatini chuqurroq va yanada ko'proq bilishga, til hodisalarini insonning ijtimoiy-iqtisodiy, ruhiy-ma'naviy hayoti bilan o'zaro bog'liq holda o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ijtimoiy hayotni shakllantiruvchi eng asosiy vosita – tilning asl tub mohiyatini to'liq anglash uchun uning zohiriy hodisalari bilan birga botinidagi hodisalarni o'rganish ham muhimligi ayon bo'lib qoldi. Dunyo va milliy tilshunoslikda tadqiq etilishi muhim bo'lgan masalalardan biri antonomaziya hodisasidir. Bu hodisaning mohiyati shundaki, unda hammaga ma'lum va mashhur

boʻlgan badiiy asar qahramonlariga, tarixiy voqea va afsonalarga ishora qilinadi. Antonomaziyaning asar badiiyatiga taʼsirini aniqlash, asosiy xususiyatlari, shakllanish, rivojlanish yoʻllari va qonuniyatlarini tadqiq etish, unga oid mavjud mulohazalarni yangicha qarash, tamoyil, mezon va dalillar asosida tahlil etish, leksiksemantik va lingvopoetik aspektda maxsus oʻrganish, mantiqiy-psixologik, lisoniy va poetik xususiyatlarini yaxlit tahlil etish, lisoniy va poetik xususiyatlari boʻyicha ilmiy fikrni shakllantirish muhim boʻlib turibdi. Antonomaziya nomning koʻchishiga asoslangan, yaʼni obʼektning maʼlum bir xususiyat-harakati boshqa obʼektda namoyon boʻlishining alohida hodisasidir. Keyingi davrlarga qadar antonomaziyaning shunday tushunilib kelindi, shunday taʼriflash bilan cheklanildi va faqat nutqning stilistik hodisasi hamda vositasi deb qabul qilindi. Hozirgi davrga kelib esa uning mohiyat-mazmuni toʻgʻrisida qarama-qarshi fikrlar bildirilmoqda. Bunday yondashuvlar antonomaziyaning notoʻgʻri tushunishni anglatmaydi, balki uning baʼzi jihatlarini yanada kengroq yoritishni, stilistik voqelikdan yanada kengroq hodisa ekanligini bildiradi. Antonomaziya lingvistik nominatsiya vositasidir, uning natijasida mutlaqo yangi maʼno guruhlarining tarkibiy, semantik va pragmatik xususiyatlari namoyon boʻladi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Antonomaziyalar ogʻzaki nutqda ham, badiiy matnda ham qoʻllaniladi. Biroq ularning badiiy nutqda qoʻllanishi nisbatan koʻproq uchraydi. Antonomaziyalar badiiy matnda ijodkorning subʼektiv munosabatini ifodalab kelib, matnni shakllantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Ular badiiy matnda metaforik maʼnoda qoʻllanilib, badiiy sanʼatlar va uslubiy figuralar yaratishga asos boʻladi. Antonomaziyalarda ishora qilinayotgan tarixiy yoki badiiy faktning mashhur, yaʼni koʻpchilikka tanish boʻlishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ishora qilinayotgan faktning mashhurlik va maʼlumlik darajasi qancha yuqori boʻlsa, uning mohiyat-mazmunini, koʻchma maʼnosini tushunuvchilar doirasi ham shuncha keng boʻladi. Antonomaziyalar badiiy matnda quyidagi maqsadlar uchun qoʻllaniladi: 1) ijodkorning fikrini yorqin, ixcham, aniq, taʼsirchan va yaqqol tarzda ifodalash uchun; 2) badiiy sanʼatni voqelantirish uchun; 3) matnning intertekstualligini

ta'minlash uchun; 4) salbiy yoki ijobiy bahoni ekspressiv ifodalash uchun; 5) kuchli hishayajonni ifodalash uchun; 6) obraz xarakteriga xos ayrim jihat va belgilarni bo'rttirib ko'rsatish uchun; 7) fikrni izohlash, tasdiqlash, dalillash uchun; 8) kitobxonning badiiy-estetik didi va dunyoqarashini mukammallashtirish va boyitish uchun. Antonomaziyalar tarkibiga kiruvchi badiiy asar obrazlarining nomi – antroponimlarni shartli tarzda uch guruhga ajratish mumkin: 1) tarixiy antroponimlar; 2) mifologik antroponimlar; 3) xayoliy-to'qima antroponimlar. Antonomaziya sifatida qo'llaniladigan tarixiy antroponimlarga Kolomb, Iskandar, Hotam, Cho'lpon; mifologik antroponimlarga Odam Ato, Momo Havo, Masih; xayoliy-to'qima antroponimlarga esa Otello, Buratino, Kumush, Otabek kabilarni misol tarzida aytib o'tish mumkin. Ayonki, ifoda vositalarining yolg'iz o'zi mustaqil holda badiiylik kasb etmaydi va badiiy nutqni tashkil qilmaydi. Ular faqat badiiy matn ichida, asar mazmuniga bog'liq holda, boshqa tasvir vositalari bilan birgalikda ma'lum ma'no kasb etadi, muayyan badiiy vazifani bajaradi, tasvirlanayotgan voqea-hodisani va unga xos xususiyatlarni yanada bo'rttirib va umumlashtirib ko'rsatishda muhim vosita bo'ladi. Ifodaviy vositalar, jumladan, antonomaziyalar badiiy nutq tarkibida o'z ma'nolaridan boshqa ma'no tovlanishlariga, ko'chma ma'nolarga, majoziy xususiyatlariga ega bo'lgan so'zlar bo'lib, ular badiiy nutq ta'sirchanligini, emotsionalligini oshirishga, tarbiyaviy-estetik vazifasini konkretlashtirishga imkon beradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, o'zbek mumtoz adabiyotidagina emas, balki Sharq mumtoz adabiyotida, qolaversa, jahon adabiyotida miqdor nuqtai nazardan eng ko'p antonomaziyalarni qo'llagan shoir, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Uning birgina "G'aroyib us-sig'ar" devonida yetmishga yaqin antonomaziya qo'llanilgan. Ayrim qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, bunday miqdordagi antonomaziyalar Alisher Navoiydan avval ham, keyin ham ijod etgan shoirlar ijodida mavjud emas. Bu Alisher Navoiyning mazkur badiiy san'at turini yuksak darajada taraqqiy ettirganligini dalilovchi faktlardan biridir. "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi antonomaziyalarni quyidagi guruhlar bo'yicha tasniflash mumkin: 1) tarixiy shaxslar nomi. Bunday antonomaziyalar real, ya'ni hayotiy shaxslar nomidan iborat bo'ladi. O'z o'rnida bu guruhdagi

antonomaziyalarni ikkita kichik guruhga ajratish mumkin: a) hukmdorlar va paygʻambarga yaqin kishilar nomi: Sikandar // Iskandar, Doro, Bilol, Suhayb va boshq. Misol: Qachonkim zohir etsang «tanziʻ -ul -mulk», Sikandarning boʻlub magʻlubi Doro. [Navoiy, 15] Tavsifi: yomonlik va yaramasliklaringni ochiq-oshkor yuzaga chiqarsang, bilintirsang, paydo qilsang, bilgilki, Iskandarning magʻlubi Doro kabi boʻlasan. Maʼlumki, Doro qadimgi Erondagi axomaniylar sulolasiga mansub podshohlar boʻlib, ular miloddan avvalgi 522-331 yillarda hukmronlik qilgan. Axomaniylar sulolasining eng oxirgi podshosi Doro III (Kodoman) yunon hukmdori Iskandar Zulqarnayn bilan boʻlgan jangda (mil. av. 331) magʻlubiyatga uchraydi va Sharqiy Eronga qochadi. U yerda oʻz amaldori, Baqtriya satrapi (hokimi) Bess tomonidan oʻldiriladi. Alisher Navoiy mazkur baytida ana shu tarixiy shaxs va voqeaga ishora etadi. b) shoirlar nomlari va taxalluslari: Lutfiy, Mavlaviy, Nizomiy, Firdavsiy Amir Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy va h.k. 2) badiiy asarlardagi toʻqima obrazlar nomi: Farhod, Shirin, Layli, Majnun (Qays), Rustam, Bahrom, Xusrav h.k. Alisher Navoiy muhabbat mavzusidagi asarlarida koʻpincha Sharqda keng tarqalgan «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Tohir va Zuhro» kabi qissa va dostonlarning qahramonlari nomiga ishora qiladi. Sendin oʻrgangan kibi Laylou Shirin zulmi kin, Mendin oʻrganmak kerak Majnun bila, Farhod ishq. [Navoiy, 87] baytida shoir «Farhod va Shirin» hamda «Layli va Majnun» dostonlariga, ulardagi Farhod va Shirin, Layli va Majnunlarning ilohiy, begʻubor, samimiy sevgisiga ishora etadi. 3) diniy-afsonaviy, mifologik qahramonlar nomi. Tilshunoslikda bunday nomlar agionim (yun. muqaddas, ilohiy nom)lar deb yuritiladi va unda muqaddas deb bilinadigan obʻekt nomlari oʻrganiladi. Alisher Navoiy devonida Odam, Iso, Nuh, Sulaymon, Xizr, Yusuf, Yaqub kabi paygʻambarlar nomlari antonomaziya sifatida keltirilgan. Misol: Nuh umriyu Sulaymon mulkiga yoʻqtur baqo, Ich, Navoiy, bodakim olam gʻami behudadur.

XULOSA

Alisher Navoiy badiiy asarlaridagi antonomaziyalar, asosan, ot soʻz turkumidagi soʻzlar asosida shakllantirilgan. Ularning koʻpchiligi arab tilidan

o'zlashgan atoqli otlardir. Miqdor jihatdan to'qima obrazlar, diniy-afsonaviy (mifologik) qahramonlar nomlari hukmdorlar nomlariga nisbatan ko'p uchraydi. Adib asarlarida qo'llangan juda ko'plab antonomaziyalar hozirgi o'zbek badiiy adabiyotida an'anaviy tarzda hozir ham faol qo'llanishda davom etmoqda. Ular o'zbek xalqining turmush tarzi, madaniyati va adabiyotiga chuqur singib, uning ijtimoiy tafakkuri, estetik didi va ahloqiy qarashlari taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelayotganligini alohida ta'kidlash o'rinlidir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Andaniyozova D. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi: filol. fan. b. fals. dok. diss. avtor. –T.: 2017. -27 b.

2. Arutyunyan M.A. Struktura, semantika i pragmatika stilisticheskogo priema «antonomaziya» na materialax nemetskogo yazыka: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. –M.: 2010. – 24 s.

3. Boboev T. She'r ilmi ta'limi. T.: O'qituvchi, 1996. -142 b.

4. Golub I. B. Stilistika russkogo yazыka. 4-e izd. -M.: Ayris-press, 2003. - Ctr. 448-451.

5. Ishoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. -T.: Zarqalam, 2006. -125 b.

6. Navoiy. Xazoyin ul-maoniy (G'aroyib us-sig'ar). Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik.- -T.: Fan, 1988.III tom.-589 b.

7. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. Journal of Central Asian Social Studies, 2(04), 1-10

8. Nasirova, S. A. (2020). CONCEPTS OF 中国 梦想" CHINESE DREAM" AND 类命运共同 " COMMUNITY OF THE ONE FATE OF HUMANITY"—A LINGUISTIC AREA. Journal of Central Asian Social Studies, 1(01), 05-14.